

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**  
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



**TAHRIRIYAT**

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rmi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



**ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

---

**Abduqayum ABDULLAYEV,**

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası mudiri

**Nazokat URINOVA,**

Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti

“Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi 3-bosqich talabasi

## ILK YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA NUTQNING AHAMIYATI

### Annotatsiya

Maqolada ilk yoshdagi va undan katta yoshdagi bolalar psixologiyasi, ularni qay tartibda parvarish qilish va har taraflama rivojlanishini yo’lga qo’yish bo’yicha atroflicha fikr va tahlillar keltirilgan.

**Kalit so’zlar.** İlk yoshdagi bolalar, maktabgacha ta’lim, muloqot, o’yinchoqlar, o’sish rivojlanish, muhit, oiladagi tarbiya.

В данной статье представлены всесторонние размышления и анализ психологии детей раннего возраста и старшего возраста, Как правильно ухаживать за ними и наладить их всестороннее развитие.

**Ключевые слова.** Дети раннего возраста, дошкольное образование, общение, игрушки, рост развитие, окружающая среда, воспитание в семье.

This article provides a comprehensive overview and analysis of the psychology of first-year and older children, how to care for them, and how to ensure their holistic development.

**Key words.** Early childhood, preschool, communication, toys, growth, environment, family upbringing.

**B**ola hayotining birinchi yilining oxiriga kelib erishgan natijalari yangi ijtimoiy rivojlanish vaziyatlarini yaratishni talab qiladi. Bu bolaning katta odamlar bilan birgalikda faoliyatga oid vaziyatlardir. Ushbu birgalikdagi faoliyat mazmuni-predmetlardan foydalanishning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini o’zlashtirishda iborat. Bola hayotining uchunchi yiliga kelib nutq rivojlanishi ko’proq keng qamrovli vazifalar doirasida eng avvalo katta yoshli yaqin qarindoshlari va bolalar bilan munosabatga kirishish hamda ular bilan birgalikda harakat qilish (nutqning kommunikativ vazifasi) atrof-muhitni olamni bilish(nutqning intellektual vazifasi) orqali davom etadi. Bu nutqiy muloqotning asosiy shaklini – diologik nutqni o’zlashtiradi. U tashabbus ko’rsatib fikr bildirishni, savollar berishni javob berishni, o’zi ham savollarga javob berishni, atrof-dagilarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilishni o’rganadi. Bola o’z xohish istaklari, hissiyotlarni fikrlarni ifodalash, kutilayotgan natijalarga erishish uchun so’zlardan foydalanadi. O’zini tushunishlariga intilish, o’z hohish-istaklarning bajarishga erishish bolani to’g’ri so’zlashga majbur qiladi. Bolaga endi oddiy, uning o’ziga tanish bo’lgan maishiy vaziyatlar, jarayonlar va o’yin vaziyatlarini ochib beruvchi oson tushiriladigan so’zlarni oddiy iboralar bilan kengaytirishdan iborat. Odamlar xonadagi

va undan tashqaridagi narsalar, hayvonlar o'simliklar, uy-joy va ularning vazifalarni ifodalovchi so'zlar zaxirasini asta-sekin sekin kengaytirib borishadi. Bolaning imkoniyat doirasidagi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishish kattalarning savollariga javob berish, o'z istak xohishlarini fikrlarni ifoda qilingan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishni qo'llab-quvvatlash; tengdoshlari ishlariga qiziqishni, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashish, o'yin harakatlarini, shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda bolaning o'ziga yaqin mavzular bo'yicha, hayvonlar hayoti transport(shahar) haqida vaziyatdan tashqari muloqot qilishga undash .

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslanib muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, hosildorlik va h.k) his qilishga, kayfiyat o'zgartirish sabablarni tushunishiga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlabki kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga(masalan o'yin , predmet va o'yinchoqlar bilan o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materiallardan narsa yasash va boshqa ) qo'shilib ketadi. Bolalarning katta yoshli odamlar bilan muloqotda bo'lgan ehtiyojni qondirmasligi ular o'rtasidagi emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ldi ba'zan bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsalarga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalar esa-da negativizim, tajovuznamoyon qilishadi. Bola hayotining to'rtinchi yilida tengdoshlari uning uchun, birgalikda amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash tuzish v.k) ishtirokchisi o'yindagi sherik sifatida qolaveradi.

Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar;

– bolaning imkoniyat doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishish, kattalarning savol va takliflarga javob berish, o'z istak hohishlarini, hissiyotlarni, fikrlarni ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga qo'llab quvvatlang;

– tengdoshlari ishlariga qiziqish o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishni istashi, o'yin harakatlari, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishni rag'batlantirish;

– bolangizning lug'at zahirasini kishilar, o'simliklar, oziq-ovqatlar, keyim- boshlar, mebellar, uy hayvonlari o'yinchoqlar, narsa buyumlar nomlari bilan boyitib boring. Gapda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lashmasa, “uyda ketdi” emas “uyga ketdi”, o'rgatish va alohida e'tibor bering;

– bolalarni unli va undosh tovushlar talaffuz qilishga o'rgating.

Kichik yoshdagi bolalar nutqni o'tirishning metodik masalalari. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti to'laqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim shartidir. Shundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot bo'yicha sheriklarning talabiga javob berish, ijtimoiy jihatdan o'zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomilalilik kabi xislatlarni tarbiyalamoq zarur.

Bolaga oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik jihatdan qulay bo'lishi, uning kattalar va tengdoshlari o'rtasidagi emotsional jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o'zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quydagilar zarur:

– bolaga kattalar va teng yoshlarning turli emotsional holati hissiyotlari va kechinmalari olamni ochib berish;

– bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilish uchun sharoit yaratish;

– quvonchli, qayg'uli, xotirjam, emotsional holatini ko'rish va tushunishga bo'lgan

---

intilishni rivojlantirish;

– o‘zini tutib turish va g‘azab, qurquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishni rivojlantirish;

– o‘zini tutib turish;

– jamiyatda qabul qilingan muloqot usullardan foydalanish ko‘nikmasini tarbiyalash; ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o‘z iltimos va takliflarni xushmuomalalik bilan bildirish; yordam berganlik, mehmon qilganlik uchun, o‘yinchoqni berib turganligi uchun mindarchilikni ishora qilish; o‘rtog‘ining iltimosiga xushmuomalalik bilan javob qaytarish; javobni hotirjamlik bilan tinglash; o‘rtig‘ini hafa qilmaydigan ohangda o‘z noroziligini ishor qilish .

Maktabgacha davrdagi kichik yoshda o‘z tovush talaffuzini eshitish va unga tutatish kirita olish so‘zdagi umumiy va turlicha tovushlarni ajrata olish (anglay olish) qobiliyati shakllanadi. 3-4 ta so‘zdan iborat bo‘lgan qatordagi bir xil tovushlarni eshita olish, berilgan tovushni ta‘kidlab ko‘rsatib talaffuz qilish, ajratib ko‘rsatilgan tovushni tinglash. Ilk rivojlanish bosqichida bolalar kattalar bilan muloqotda tashabbuskor bo‘lib, ko‘p savollar beradilar, o‘yinlar to‘plami, surat bo‘yicha kichik hikoyalar to‘qiydilar, bilishga ishtiyoqmand ekanliklarini namoyon etadilar, quvnoq so‘zlar va qofiyalar o‘ylab topadilar ular tengdoshlari bilan birgalikda o‘yinlarda nutqni faol qo‘llaydilar.

Predmet va konstruktorlik o‘yinlar orqali va bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok xotirasi tasavvur taffakuri hamda harakat layoqatini rivojlantiradilar. Suetli, rolli o‘yinlarda bolalar asosan o‘zlari har kuni ko‘rayotgan kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarni aks ettiradilar. 1-3 yoshli bolalar hali tashqi muhitni juda oz o‘zlashtirganlar. Ular hali hattoki narsalarning rangini hajmini va boshqa jihatlarini yaxshi ajratolmaydilar. Shuning uchun ularga qo‘g‘irchoq bilan har xil qiyiq matolar ham berish kerak.

Bolalarning ongi rivojlanib borgani sari ularning nutqi rivojlana boshlaydi. Dastlab atrof-muhitdagi ko‘p aytiladigan oson so‘zlarni ayta oladi. Keyinchalik murakkab so‘zlarni ham ayta boshlaydi. Ilk yoshdagi bolalar rivojlanish davrida uning ongi, nutqi va jismoniy jihatdan jadallik bilan rivojlanadi. Ilk yoshdagi bolalar hayotida nutqning ahamiyati katta, chunki ularning gap so‘zlariga kattalar tushina olmaydi. O‘zlari ham kattalarga tushuntira olmaydi. Lekin ular rivojlanish davrida, bola o‘zini anglash davrida kattalarni tushunadi. Agar ular o‘zi nutqni kattalarga tushuntira olmasa har xil harakatlar imo-ishoralari yordamida qisqa so‘zlar tovushlar yordamida tushuntira oladi. Dastlab bola tug‘ulganida jismoniy o‘zgarishlar bilan birgalikda, aqliy o‘zgarishlar keyinchalik esa nutqiy o‘zgarishlar yaqqol seziladi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. *Bolalarning so‘zlashuv nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning roli mavzusidagi malaka ishi. Bajaruvchi; V. Umarova 2015-yil*

2. *Bolalarning nutqini o‘stirish fanidan o‘quv uslubiy majmua. Tuzuvchi; Avezov S.S. Sharipova M. B., Nizomova Sh. Sh., Xomrayeva N. N.*

3. *Turli internet ma‘lumotlari.*

4. *Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasi logopedik ish tizimini shakllantirish. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Magistratura bo‘limi boshlig‘i. M. Hasanov Tuzuvchi; Sh. Amirsaidova.*